



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 1-mart, shanba,
25-26 (24.051-24.052)-son

O'zbek xalq
maqoli

Daryoga
yaxshilik
qilsang, ajrini
biyobondan
topasan

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

SAMARQAND va MASHHAD

O'RTASIDA AVIAQATNOV YO'LGA QO'YILADI



Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev Eron Islom Respublikasining Razaviy Xuroson viloyati hokimi G'ulom Hussain Muzaffari bilan uchrashdi. Do'stona suhbatda tomonlar keyingi yillarda O'zbekiston va Eron Islom Respublikasining rahbarlari tomonidan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotganligiga to'xtildi.

Adiz Boboyev ko'p asrlar davomida xalqlarimizni madaniy-tarixiy mushtaraklik bog'lab turgani, o'zaro muloqotlar faollashib borayotganini qayd etib, istiqbolli qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish zarurligini bildirdi. Razaviy Xuroson va Samarqand viloyatlari o'rtasida savdo, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, investitsiyalar, transport va kommunikatsiyalar, turizm kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. Qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati, po'lat ishlab chiqarish hamkorlik yaxshi sama-

ra berishini qayd etdi.

Razaviy Xuroson viloyati hokimi G'ulom Hussain Muzaffari Eron delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi. Razaviy Xuroson viloyati iqtisodiy salohiyati haqida ma'lumot berib, ilm-fan, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish yo'nalishlarida hamkorlik qilish, Mashhadan Samarqandga to'g'ridan-to'g'ri aviqatnovni yo'lga qo'yish, ikki hudud tadbirkorlari, hunarmandlari mahsulotlarining ko'rgazmalarini o'tkazish, Razaviy Xuroson hamda Samarqanddagi

ko'chalarga ushbu hududlar nomi berish, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirish taklifini berdi.

Uchrashuv doirasida Samarqand viloyati hamda Razaviy Xuroson viloyati tadbirkorlari ishtirokida biznes-forum tashkil etildi. Unda so'zga chiqqan har ikki viloyat rahbarlari mazkur tadbirlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda muhim qadam ekanligini ta'kidlashdi.

Samarqandda salkam 20 yildan buyon faoliyat ko'rsataman, - deydi forum ishtirokchisi Homidi Kohe. Samarqandliklarni "Anatasam" shirinliklari ishlab chiqarish korxonam orqali tanishadi. O'zbekistonda investitorlarga yaxshi imkoniyalar yaratilgan. Forumda eronlik hamkorlarimiz investitsiya kiritib faoliyat ko'rsatishda hech qanday muammolar yo'qligini aytdim. O'ylaymanki, forum natijasida Samarqandda Eron korxonalari ko'payib, import, eksport hajmi yanada oshadi.

Forumda o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Eron va Samarqand kompaniyalari vakillari ishtirokida B2B va B2G formatdagi uchrashuvlar o'tkazildi. Uchrashuvlarda kimyo sanoati, farmatsevtika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, turizm yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatuvchi ikki yuzga yaqin tadbirkorlar ishtirok etishdi.



Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida o'zlarini saylangan okruglarda bo'lib, saylovchilar bilan muloqot qilmoqda.

Toshkent iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida tashkil etilgan shunday tadbirga parlament quyi palatasi deputati Zebuniso Rahmonova hamda mahalliy vakillik organlari a'zolari ishtirok etdi.



Aholi orasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish borasida olib borilayotgan keng ko'lami ishlar bilan birga e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar ham saqlanib qolmoqda, - deydi Z.Rahmonova. - Jumladan, axborot texnologiyalari va internetning hayotimizga kirib kelishi natijasida

MUTASADDILARGA TAVSIYA BERILIB, AHOLI TAKLIFLARI UMUMLASHTIRILMOQDA

aholi orasida kam harakatlanish, jismoniy nafaollik kuzatilmoqda. Bu esa turli kasalliklarni keltirib chiqarmoqda.

Infarkt, insult, qandli diabet, xavfli o'sma kabi yuqumli bo'lmagan kasalliklar sababli o'limlar barcha o'limlarning 76 foizini tashkil etmoqda.

Shu kabi aniq fakt va raqamlar o'rtaga tashlangan muloqotda aholi orasida sog'lom turmush tarzi hamda to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning ahamiyati xususida so'z yuritildi. Xalq vakillari keng jamoatchilikka mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan yangi qonunlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumotlar berishdi.

Shuningdek, deputatlar kambag'allikni qisqartirish, investitsion loyihalarni, yangi uy-joylarning qurilishi kabi bir qator muhim jarayonlarni ham o'rganmoqda. Mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berib, aholining takliflarini umumlashtirmoqda.

MUAMMOLAR O'RGANILIB...

Parlament quyi palatasidagi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Azamat Pardayev Oqdaryo tumanidagi saylovchilar bilan muloqot qildi.

Tumandagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan uchrashuvda dastlab Qonunchilik palatasi majlislarida muhokama qilingan masalalar, qonunchilikdagi yangiliklar xususida so'z yuritildi. Muloqot



davomida hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalar o'rtaga tashlanib, muammo yechimi yuzasidan fikrlashib olindi. Xususan, Dahbed mahal-lasida istiqomat qiluvchi aholi hududda ko'p qavatli uylar qurilayotganini qayd etib, oqova tizimi yaratish zarurligini ta'kidladi.

A.Pardayev bu masalada tegishli vazirlik va idoralarga murojaat qilishini bildirdi.

Shuningdek, uchrashuvda o'quvchilarning "Kundalik.com" tizimidan foydalanishi, onkologik kasalligi bor insonlarga yordam berish masalalari,

gaz narxi tariflarining oshirilishi aholi daromadlari bilan bog'lanmagani yuzasidan ham savollar o'rta-ga tashlandi.

Oqdaryo tumanidagi 5 ta ijtimoiy soha obyekti ho-latini o'rganganimizda bir qator kamchiliklar aniqlanib, mas'ullar bilan ularni hal etish choralarini belgiladik, - deydi A.Pardayev. - Saylovchilar bilan uchrashuvlarda ko'tarilgan davolanish uchun bepul dori-darmon, toza ichimlik suvi muammosi bo'yicha murojaatlari yuzasi-dan respublika darajasidagi tegishli idoralar mas'ullari-ga murojaat qilishni rejalashtirdik.

Prezident qaroriga ko'ra



SAXOVAT, BIRDAMLIK VA BAG'RIKENGLIK OYI BOSHLANDI

Davlatimiz rahbari "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Unga ko'ra, O'zbekiston musulmonlari idorasining 2025-yilda muborak Ramazon oyining boshlanishi 1-mart kuniga to'g'ri kelishi haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilindi.

Ushbu fazilatli oyda "Ra-

mazon - saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" g'oyasi asosida:

ehtiyomandlar hamda ilm-ma'rifat yo'lida izlanayotgan yoshlarga yordam berish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga; oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro tushunish va ishonch muhiti-ni kuchaytirish hamda hur-

mat va mehr-oqibat qadriyatlarini tarannum etishga; atrof-muhitni asrash, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh va qabristonlarni obodonlashtirish, ko'chatlar ekishga hamda Ramazon oyi bilan bog'liq tadbirlarda me'yorga amal qilish va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor berilishi belgilandi.

RAMAZON MUBORAK BO'LSIN!

Saxovat, mehr-muruvvat, mag'firat va rahmat oyining fazilati beqiyos. Ramazon oyida musulmonlarning Alloh huzuridagi martabalari yuqori ko'tariladi, xayrli ishlarining mukofotlari ko'paytiriladi va gunohlari kechiriladi.



Baqara surasining 185-oyatida shunday deyiladi: "Bu oy - Ramazon oyi. Bu oyda Yaratgan o'zining kalomini nozil qildi. Bu Qur'oni karimdir. Bu odamlar uchun hidoyat yo'li, haq va nohaqni ajratib beradigan muqaddas kitobdir".

Ramazon ro'za, taroveh va tilovat oyi bo'lib, uning ro'zasini tutish farz, taroveh namozini o'qish sunnat, Qur'oni karimni xatm qilish fazilatidir.

Ushbu muborak oyda viloyatimizdagi 286 jome' masjidida taroveh namozlari o'qiladi va ularning 198 tasida Qur'on xatm qilinadi. Buning uchun namozxonlarda yetarlicha sharoit yaratildi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) muborak hadislarida ro'zadorni ro'zasi faqat yeyish-ichishni tark etish bilan emas, balki yaxshi amallarni ko'paytirish bilan ham sayqallanadi, deganlar. Shunday qutlug' kunlarda yordamga muhtojlar holidan xabar olish, ularga ko'mak ko'rsatish g'oyat savobli amal sanaladi.

Ramazon tenglik oyi bo'lib, bu mavsumda qariyalar ziyorat qilinadi, bemorlardan xabar olinadi, muhtojlarga yordam beriladi, boshiga musibat tushganlardan ko'ngil so'raladi va yetimlar yupatiladi.

Hadisi sharifda keltirilganidek, Ramazon oyida imkoni bo'lsa, ro'zador uchun iftorlik qilib berish, qurbi yetmasa, bir qultum suv yoki bir dona xurmo bilan ro'zadorni og'zini ochish xayrli amal, ammo bunday iftorliklarda isrofgarchilikka yo'l qo'yish gunohdir.

Muqaddas Qur'oni karimda "Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar", deyilgan. Keyingi paytlarda iftorlik tadbirlarida dabdababozlikka yo'l qo'yilayotgani ko'ngilni xira qiladi. Ba'zida bu tadbirlarning katta bazmgohlarda, to'yxonalarda tashkil etilishiga, dasturxonlarning kerigidan ortiq bezatilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Birgina shu holatning o'zi juda katta isrofgarchilikdir. Shuning uchun bunday noma'qul ishlardan tiyilish lozim.

Muqaddas oini savobli, xayrli ishlar bilan o'tkazaylik. Barchamizga Ramazon oyi muborak bo'lsin! Alloh yurtimizga, xonadonlarimizga o'zining xayru barakatini yo'g'dirsin!

Xayrulloh SATTOROV,
viloyat bosh imom-xatibi o'rinbosari.

Parlament hayoti



12 TA RUXSAT BERISH TARTIB- TAOMILI BEKOR QILINADI

bu orqali tadbirkorlar bir yilda o'rtacha 26 milliard so'mdan ko'proq mablag' tejaydi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining oxirgi yalpi majlisida o'nga yaqin masala ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Jumladan, "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishda vakolatli organlar mas'uliyatini oshirish, shuningdek, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari-ning yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Mazkur loyiha bilan Bojxona, Iqtisodiy protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga hamda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida", "Yong'in xavfsizligi to'g'risida", "Davlat boji to'g'risida", "Eksport nazorati to'g'risida", "Turizm to'g'risida"gi Qonunlarga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.



IIB XODIMIGA HAM MA'MURIY CHORA KO'RILADI

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy organlari tomonidan 2023-2024-yillar davomida 12 ming 471 ta, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning hududiy organlarida 919 ta, bojxona qo'mitasi va uning hududiy organlari tomonidan esa 38 ta, Mudofaa vazirligi va uning hududiy organlari tomonidan faqat 2024-yilda 269 ta qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgan.

Albatta, aniqlangan holatlar bo'yicha taqdimnoma va ogohнома kiritilgan. Endi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun harbiy xizmatchilar, shuningdek, ichki ishlar organlarining hamda Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilarini umumiy asosda ma'muriy javobgarlikka tortish belgilanmoqda. Ya'ni, davlat xizmatini ko'rsatishda qonunbuzilish holatiga yo'l qo'yiladigan bo'lsa, u kim bo'lishidan qat'i nazar, jazolanishi kerak.

XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI BUZILMASIN!

Aslida qonunchilikdagi asosiy maqsad shu - xizmat ko'rsatish tartibi buzilmasin! Lekin gohida turli sabablar bilan bu borada qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yiladi. To'g'ri, buning uchun javobgarlik choralarini ko'zda tutilgan.

Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 230-moddasi uchinchi qismiga asosan, tibbiyot muassasasining mansabdor shaxslari tomonidan tug'ilishni va o'limni o'z vaqtida quyidagicha ta'minlash choralarini ko'rmaganlik, xuddi shuningdek, tug'ilganlik to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomani yoxud o'lim haqidagi, shu jumladan, perinatal o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnomani noto'g'ri va (yoki) noaniq to'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan.

2024-yilda tug'ilishni quyidagicha tibbiyot muassasalari tomonidan 41 ming 186 ta qonunbuzilish (muddat buzilishi) holatlariga yo'l qo'yilgan.

O'limni quyidagicha tibbiyot muassasalari tomonidan kuzatilgan bunday holat 2 ming 371 tani tashkil qilgan.

To'g'ri, birinchi holat bo'yicha 319 nafar, keyingisida esa 90 nafar tibbiyot muassasalarining rahbar va mas'ul xodimlariga nisbatan ma'muriy jarima

qo'llanilgan.

O'rganishlarda davlat xizmatini ko'rsatish tartibi buzilganda javobgarlik masalasida turli nomuvofiqliklar borligi aniqlangan. Shu bois ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini muvofiqlashtirilmoqda. Bu bilan davlat xizmatini ko'rsatishda sifat va samardorlikka erishiladi.

KO'LAMI KENG O'ZGARTISH

Yangi qonun bilan 12 ta litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomili bekor qilinayotganini shunday nomlash mumkin.

Masalan, ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalasi sohasidagi faoliyat uchun litsenziya, eksport nazorati obyektlarini olib chiqish uchun ruxsatnoma olish shart bo'lmaydi.

Mazkur 12 ta ruxsat berish tartib-taomili bekor qilinishi natijasida yiliga o'rtacha 1,8 mingdan ortiq tadbirkor 26 milliard so'mdan ko'proq mablag'ini tejaydi.

Bundan tashqari, neft mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun avval xabarnoma bo'lgan tartib-taomil ruxsat berish tartibiga o'tkazilmoqda.

Shuningdek, yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyati uchun litsenziya olinishi belgilanmoqda.

Qonunchilikka qurilish loyihalarini ekspertizasini o'tkazish faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun guvohnoma olish shart, degan norma kiritilyapti.

Yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash uchun obyektning (omborning) yong'in va sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida esa xulosa bilan ish boshlash mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, qonun loyihasining qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlarining litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish jarayonlarini soddalashtirishga, ortiqcha byurokratik talablarni qisqartirishga hamda mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.



Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Samarqand – yurtimizning turizm darvozasi



Mehmonlar uchun zararsiz muhit muhim

Samarqand dunyo nigohidagi shahar va unga dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar kelishga oshiqadi. O'tgan yilning o'zida bu shahri azimga 2 million 523 ming nafar xorijiy va 5 millionga yaqin mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Bugungi kunga kelib, sayyohlarning shahrimizda qolish kunlari 2 kundan 2,7 kungacha uzaygani ham ma'lum. Tabiiyki, ziyoratchilarning Samarqand shahrida ko'proq qolishi va mazmunli sayohatlari uchun ularga sifatli servis xizmati ko'rsatilishi, tarixiy hududlardagi obodonchilik va munosib xizmat, joylashtirish vositalaridagi shart-sharoit, oshxonalarda sifatli taomlar tortilishi muhim o'rin tutadi. Ushbu hududlar sanitariya holatlarining yuqori darajada bo'lishi ham sayyohlarning salomatligi va Samarqand haqidagi xulosalarida katta ahamiyat kasb etadi.

Viloyatga kelayotgan mehmonlar uchun tegishli tashkilotlarning toza-ozoda va zarur qoidalarga amal qilingan holda xizmat ko'rsatishini ta'minlash eng muhim vazifalardan biri bo'lib, bu borada sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi viloyat boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mehmonlarning yashash, dam olish, ovqatlanish joylariga, ziyoratgohlarga va tarixiy obidalarga malakali mutaxassislarimiz birlashtirilib, turistik muassasalarda sanitariya-gigiyena qoidalarga qat'iy rioya qilinishi, xorijlik mehmonlarning epidemiologik osoyishtaligi va xavfsiz ovqatlanishini ta'minlash doimiy nazoratga olingan.

Turistik maskanlar va ularga chegaradosh hududlar sanitariya holati o'rganilib,

atrof-muhit ifloslanishining oldini olish choralari ko'rilmogda.

Barcha turistik obyektlarda profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun dezinfeksiyon brigadalar tashkil etilgan. Xususan, viloyatdagi 50 dan ziyod restoran, 165 ta mehmonxonona, shuningdek, 600 dan ziyod uy-mehmonxonalar, hostellarda shu kabi profilaktik amallar bajarildi.

Samarqand xalqaro aeroportidagi va temir yo'l vokzalidagi sanitariya nazorat punkti tomonidan xorijiy mehmonlarni tibbiy nazoratdan o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi, qo'shimcha teplovizorlar o'rnatildi.

Barcha turistik muassasalarda o'tkazilgan laboratoriya o'lchov natijalari bo'yicha tashqi muhitning radiatsiya foni, elektromagnit maydon nurlanish darajasi,

xonalar havosining changlanish, gazlanish darajasi, shovqin miqdori, yoritilganligi, mikroiklim va yopiq xonalar havosining bakteriologik ifloslanishi, shuningdek, ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlari sifatini sanitariya qoida va me'yor talablariga javob berishi aniqlandi.

Aytish kerakki, tashqi muhit fizik omillarining laboratoriya o'lchovlarini o'tkazish, ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifat va xavfsizligini tekshirish uchun viloyat boshqarmasida sanitariya-gigiyena, bakteriologiya, virusologiya, radiologiya, parazitologiya laboratoriyalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Xorijiy mehmonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun viloyat shifoxonalari, shuningdek, xususiy klinikalarda zaxira o'rinlar tashkil etilgan. Tasdiqlangan ro'yxat asosida dori-darmonlar va zaruriy zararsizlantiruvchi vositalar bilan ta'minlangan.

Har bir turistik muassasaga birlashtirilgan mutaxassislar tomonidan mehmonlarga umumiy ovqatlanish xizmati ko'rsatishga jalb etilgan oshpaz va ofitsiantlar tomondan taom tayyorlashda texnologik rejim va sanitariya talablariga hamda shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya etgan holda yuqori saviyada malakali xizmat ko'rsatish ustidan kunlik nazorat o'rnatilgan.

Latif RUSTAMOV,
sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi qo'mitasi viloyat
boshqarmasi boshlig'i.

CHIROYLI YURTLAR KO'P, XAVFSIZI KAM

Ummon davlati fuqarosi Saif al-Hadi Amir Temur maqbarasida xizmat vazifasini olib borayotgan turizm politsiyasi xodimi Ozod Ahtamovga qo'l telefoni yo'qolganligi yuzasidan murojaat qildi. Unga ko'ra, sayyoh o'z apparatidan oxirgi marta yo'nalishsiz taksidaligida foydalangan va katta ehtimol bilan mashinada tushirib qoldirgan.

Tezkor qidiruv tadbirida shahrimiz bo'yab o'rnatilgan kameralardan foydalanilib, taksi mashinasi ham, uning haydovchisi ham topildi. Ammo haydovchi hech qanday telefon ko'rimganligini ma'lum qildi. Apparatni u olganligini isbotlovchi aniq dalil ham yo'q. Shunda huquq-tartibot idorasi xodimlari ishni qayta tahlil qilib, sayyoh borgan manzillar, yurgan yo'llarni o'rgandi, joylardagi kameralar xotiralarini tekshirib chiqildi. Mehmon qo'l telefonini ko'chada tushirib qoldirgani va uni ko'p o'tmay, boshqa bir fuqaro topib olgani aniqlandi. Qidiruv-surishtiruv ishlari davom ettirilib, fuqaroning shaxsiga oydinlik kiritildi.

O'z telefonini qabul qilib olarkan, Saif Al-Hadi hayratini yashirmadi, - deydi kapitan Ozod Ahtamov. - U sayohat qilgan ko'plab davlatlar politsiyasi yo'qotilgan yoki o'g'irlangan qo'l telefonlarini qidirish bilan shug'ullanmas ekan. Fuqaro yoki sayyoh politsiyadan olgan ma'lumotnomasi asosida sug'urta kompaniyasiga murojaat qilib, zararining ma'lum miqdorini qoplashi mumkin, xolos. Apparatda qimmatli ma'lumotlar bo'lishi mumkinligi hech kimni qiziqitmaydi. Saif al-Hadi ham telefonidan ko'ra undagi ma'lumotlar qimmatliroq ekanligini aytib, minnatdorchilik bildirdi. Aytish joizki, faoliyatimizda bunga o'xshash holatlar ko'p bo'ladi. Kimdir hujjatini, boshqasi qimmatbaho buyumini yo'qotadi. Adashib qolganlar ham bo'ladi. Biz ularga vakolatimiz doirasida yordam berib, yurtimiz haqidagi taassuroti buzilishining oldini olamiz.

2024-yilda viloyat xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi inspektorlariga xorijiy va mahalliy sayyohlardan 32866 ta murojaat bo'lgan. Ularning asosiy qismi tarixiy obyektlarga yo'nalish ko'rsatish, salomatligi yomonlashgan sayyohlarga birinchi tibbiy yordam berish, mahalliy va xorijiy sayyohlarning ehtiyotsizligi oqibatida yo'qolgan narsalarini topishda yordamlashishi bilan bog'liq. Shuningdek, tizimda ishlovchi inspektorlar bir necha xorijiy tilda gapira olishi hisobiga sayyohlarning boshqa muam-



molarini hal qilishda ham faol ishtirok etishmoqda.

Misol uchun, Ozod Ahtamov nemis, rus, yapon, turk tillarida bemaol suhbatlasha oladi. Uning safdoshlari orasida bundan boshqa tillarni egallaganlari hamkor. Ya'ni, ular sayyohlar bilan umumiy til topishida muammoga duch kelmaydi. Shuningdek, tizim inspektorlari har yili birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kurslarida o'qitiladi. Shu bois ularning yonida tegishli tibbiy vositalarni ko'rishigiz mumkin. Demak, turizm politsiyasi nafaqat qonunlar, balki sayyohlarning salomatligini muhofaza qilishda ham ishtirok etmoqda.

Dunyoda chiroyli manzillar ko'p. Lekin ularning barchasi ham xavfsiz hududda joylashmagan. Birida tabiiy ofatlar xavfi bo'lsa, boshqalarida kriminogen yoki siyosiy vaziyat yaxshi emas. Har qanday sayyoh buni inobatga oladi va xavfsiz manzillarni tanlaydi. Shu nuqtai nazardan yurtimizning turizm salohiyati katta. Xavfsiz turizm konsepsiyasi uni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asqar BAROTOV.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

2025-yilda Samarqand viloyatida Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta'limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish va aholi jismoniy faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq, shuningdek, viloyatda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sport bilan muvazam shug'ullanishga jalb etish, hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) faoliyatini qo'llab-quvvatlash, olimpiya va paralimpiya sport turlarini rivojlantirish orqali nufuzli xalqaro sport musobaqalari, jumladan, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida sportchilarimizning har tomonlama muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash maqsadida QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar: Olimpiya va Paralimpiya harakati, sport ta'limi va seleksiya hamda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish, aholining jismoniy faolligini oshirish yuzasidan viloyatda 2025-yilda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha "Yo'l xaritasi" 1-ilovaga muvofiq; viloyatda 2025-yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq; 2025-yilda hududiy sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan "sport qabullari" o'tkazish bo'yicha reja-jadvali

3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2. Viloyat hokimining o'rinbosari (X.To'xtayev), viloyat sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev) tegishli boshqarma va tashkilotlar hamda tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda ilovalarda belgilangan topshiriqlarning o'z muddatida ijrosini ta'minlash choralari ni ko'rsin. 3. Viloyat hokimining o'rinbosari (X.To'xtayev), viloyat sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev), yoshlar ishlari boshqarmasi (S.Boboyev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda: jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanadigan

aholi ulushini joriy yilda kamida 30 foizga yetkazish; viloyat yoshlarining sportga qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish tizimini yo'lga qo'yish; Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rayotgan sportchilarning ijtimoiy-maishiy va moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirib borish; xususiy sport klublari faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari ni ko'rsin. 4. Viloyat hokimining o'rinbosari (X.To'xtayev), viloyat sport boshqarmasi (Sh.Ro'ziyev) mazkur qarorda va "Yo'l xaritasi" da ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifati amalga oshirilishi bo'yicha har oyda bir marotaba viloyat hokimi huzurida tuman (shahar) hokimlari, viloyat sport boshqarmasi, hududiy sport federatsiyalari va davlat sport ta'lim muassasalari ishtirokida muhokama qilib borish choralari ni ko'rsin. 5. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Ixtiyorov), viloyat

teleradiokompaniyasi (D.Ismatov) hamda "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini birlashtirish tahririyati (F.Toshev) bilan birgalikda mazkur qaror rasmiy e'l on qilinishini va https://samarkand.uz/ veb-saytida joylashtirishini ta'minlasin. 6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari X.To'xtayev zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi v.b. A.BOBOYEV 2025-yil 25-fevral 64-7-0-Q/25



Samarqand viloyati hokimining QARORI

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1326-son qaroriga muvofiq, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 6-yanvardagi (02/02-32/5-son), viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasining 2025-yil 13-yanvardagi (7-son) va viloyat soliq boshqarmasining 2024-yil 17-yanvardagi (20-0818-son) xulosalari hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari kotibiyati mudiri R.Maxqulovning 2025-yil 16-yanvardagi (28/01-30-son) bildirgisiga asoslanib, QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar: bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar miqdorlari 1-ilovaga; bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarning miqdorlari 2-ilovaga;

bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish uchun to'lovlarning miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2. Viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (A.Rajabov)ga: viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatilgan

xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to'liq undirilishini; ushbu qarorning 1-bandida tasdiqlangan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati miqdorlarini viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslari, sotuvchi va xaridorlar e'tiboriga yetkazilishini, bu haqdagi ma'lumotlarning barcha ko'rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o'rnatilishini; ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati uchun to'lovlarning holati bo'yicha monitoring kuzatuvini yuritish va natijalari yuzasidan viloyat hokimligiga aniq takliflar kiritib borilishini; ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning yangi miqdorlarining to'g'ri qo'llanilishi hamda to'liq undirilishi va bozorlar daromadlarining belgilangan qismini mahalliy budgetga o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlash topshirilsin. 3. Viloyat hokimining 2024-yil 19-fevraldagi "Viloyatdagi bozor va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 46-7-0-Q/24-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblan-

dirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini belgilash to'g'risida" gi 46-7-0-Q/24-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblan-

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati, (M.Ixtiyorov), viloyat hokimligi huzuridagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" (N.Norbekov) ushbu qarorning ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta'minlasin. 5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Abilov zimmasiga yuklatilsin. 6. Ushbu qaror rasmiy e'l on qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Viloyat hokimi v.b. A.BOBOYEV 2025-yil 22-fevral 55-7-0-Q/25



Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlarning miqdorlari (so'm hisobida)

Table with 5 columns: T/R, Mahsulot turi, O'lchov birligi, Olinadigan to'lovlar (Samarqand va Kattaqo'rg'on shahri, Urgut tumani bozorlarida), Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida. Rows include Mahsulotlarni savdo o'rinlarida sotish, Mevalar, Quruq mevalar, yong'oqlar, Sabzavotlar, Pomidor, bodring, Poliz mahsulotlari, Don mahsulotlari, Dukkaki mahsulotlar, Sut mahsulotlari, Tuzlamalar, Ziravor va dorivorlar.

Table with 5 columns: No, Ko'katlar (shu jumladan, isiqxonada yetishtirilganlar), o'rin/kunga, 9000, 7000, 5000. Rows include Tuxum, Gullar va ko'chatlar, Non mahsulotlari, Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, Sanoat yo'li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari, Milliy taomlar, Polietilen va qog'oz paketlar, Supurgi, Trink baliq, Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kasbiylik tovarlari, Mayda konselyariya mollari, Go'sht mahsulotlari, Parranda go'shti, Tayyor pishgan go'shti mahsulotlari, Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish, Tirkama, mahsulotlarni yerdan sotish, Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar, Tayyor ustki kiyimlar, Televizor, Uyali telefon aksessuarlari va boshqa buyumlar, Ilgari foydalanishda bo'lgan buyumlarini sotish.

Table with 5 columns: No, Avtotransport vositalarini sotish, 1 dona, 55 000, x, x. Rows include Yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar, Ilgari foydalanishda bo'lgan ehtiyot qismlari sotish, Mol bozoriga olib kiritilgan har bir chorva mollari uchun, Yirik shoxli qoramol, Yirik shoxli qoramol (shu jumladan, sigir buzog'i bilan), Mayda shoxli qoramol, Cho'chqalar, Cho'chqa bolalari, Uy parrandalari, Itlar va mushuklar, Manzarlari qushlar va baliqlar, Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, aksessuarlar va buyumlar.

Izoh: 1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o'ri) o'lchami 1 - 1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o'lchamdan ortiq o'rin uchun qo'shimcha ravishda har bir savdo o'ri uchun belgilangan to'lov miqdorida joy haqi undiriladi. 2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari aralash holda sotilganda, to'lov sotiladigan mahsulot turlari bo'yicha belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi. 3. Urgut, Qo'shrabot, Ishtixon, Payangi tumanlaridagi dehqon bozorlarida katta tarozida tortishda har bir kg. uchun mayiz-400 so'm, no'xat-400 so'm deb, patta puli undirilsin (faqat Kattaqo'rg'on tumanidagi dehqon bozorlari uchun katta tarozida tortishda har bir kg. uchun mayiz-200, 0 so'm). 4. Har bir ko'rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to'lov tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinasin.

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarning miqdorlari (so'm hisobida)

Table with 5 columns: T/R, Ko'rsatiladigan xizmatlar turi, O'lchov birligi, Olinadigan to'lovlar (Samarqand va Kattaqo'rg'on shahri, Urgut tumani bozorlarida), Viloyatning qolgan tumanlari bozorlarida. Rows include Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanilgan uchun ijara to'lovi, Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari sotish, Umumiy ovqatlanish, Maishiy xizmat ko'rsatish, Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k.), Inventarlarni ijaraga berish, Tash-tarozilar uchun, Katta yuk tashish to'lovlari uchun, Savdo jihozlari uchun, Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun, Mahsulotlar uchun brezent berish, Aravachalar uchun, Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanilgan uchun, Ko'rsatiladigan xizmat turlari, Oqshloq xo'jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, omborxonalar, saqlash kameralarida, bozor hududidagi rastalar va ochiq joylarda, Buyumlarni omborlarga saqlash, Mahsulotlarni tarozida tortish, katta yuk tarozida, yirik va mayda shoxli qoramolni tortish.

Table with 5 columns: No, Avtotarozilardan foydalanish, 1 marta o'lchash, 8 000, 7 000, 6 000. Rows include yuk bilan, yuksiz, Yuk ko'tarish quvvati 5 tonnagacha bo'lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan, yengil avtomashinalardan, tirkamali yengil avtomashinalardan, Mehmonxonada xizmatidan foydalanish, Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun, Samarqand innovatsion avtomobilari sotish bozorida, Transport vositalarining yuk o'tirish va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi, yengil avtomashinalar uchun, avtomashinalari uchun, Po'yabzal ta'mirlash xizmati, Hojatxona xizmatidan foydalanish, Telefonidan foydalanish, Radiouzel orqali e'l on berish, Boshqa ko'rsatiladigan har xil xizmatlar uchun, Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar, Chelak dehqon bozoridagi yangi bozor avtotarozigohida, Chelak shahridagi 4-R-48 avtomobil yo'li Chelak shahrida tashkil qilingan avtotarozigohda.

Maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotishdan undiriladigan to'lovlar miqdori (so'm hisobida)

Table with 5 columns: T/R, To'lov turi, O'lchov birligi, Olinadigan to'lovlar. Rows include Maxsus ajratilgan joylarda og'ir va katta o'lchamdagi qurilish materiallarini sotish: 1.1. 6 kv.metr.gacha, 1 o'rin/kunga, 18 000; 1.2. 6 dan - 15 kv.metr.gacha, 1 o'rin/kunga, 22 000; 1.3. 15 dan - 30 kv.metr.gacha, 1 o'rin/kunga, 24 000; 2. Qurilish materiallarini vaqtinchalik saqlash uchun, 1 o'rin/kunga, 17 000; 3. Kichik o'lchamdagi qurilish materiallari (mayda o'lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (Iyustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv.metr.gacha), 1 o'rin/kunga, 17 000; 4. Mahalliy (terak, qamish, somon va h.k.) va eski qurilish materiallari, 1 kv.metr, 2 000.

Izoh: Har bir ko'rsatilgan xizmatlar uchun undiriladigan to'lov tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilgan holda hisoblanganligi inobatga olinasin.



Samarqandlik 5 nafar o'quvchi Koreyadagi maktabda o'qiydi

Samarqand xalqaro texnologiya universiteti (SIUT) "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" doirasida Koreya Respublikasining "Gimcheon High School" maktabi bilan hamkorlikda ijtimoiy loyiha amalga oshirilmog'ida.

Unga ko'ra, viloyatimizdagi ehtiyojmand, mahallalardagi ijtimoiy daftarlarga kiritilgan oilalarning iqtidorli farzandlari Koreyada o'qitiladi.

– 1931-yilda tashkil etilgan "Gimcheon High School" maktabida Xitoy, Malayziya, Vetnam kabi davlatlardan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari tahsil oladi, – deydi Samarqand xalqaro texnologiya universiteti rektori Yusuf Abdullayev. – Maktab bitiruvchilari Koreya va boshqa xorijiy davlatlardagi nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsilni davom ettiradi. O'tgan yil biz ham mazkur maktab bilan hamkorlik memorandumini imzolab, yurtimizdagi ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarning iqtidorli farzandlarini Koreyada o'qishiga imkoniyat yaratdik. Dastlab ijtimoiy himoyaga muhtoj, "temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlari uchun Janubiy Koreyada o'qish imkoniyatini beruvchi maxsus

tanlov tashkil etildi. Ushbu tanlov natijasida 30 dan ortiq talabgorlar orasidan IQ (zehn testi) bo'yicha yuqori natijalari n qayd etgan Urgut tumanida yashovchi Mavlonbek Rabbimov va Shohimardon Sharofov, ishtixonlik Rabbim Ravshanov, oqdaryolik Ozodbek Yo'ldoshev hamda Kattaqo'rg'on tumanidan Umrbek Yo'ldoshev saralab olinib, ular uchun 2024-yilning iyul oyidan 2025-yilning fevraliga qadar universitetimizda matematika, koreys va ingliz tillari bo'yicha maxsus bepul tayyorlov kursi tashkil etildi. Shuningdek, ularning yashashi va moddiy ta'minoti ham universitet vasilylik kengashi tomonidan to'liq qoplandi. O'quvchilarning uch nafari 1-martdan "Gimcheon High School"da o'qishni boshlaydi, qolgan ikki nafar o'quvchi esa shu yilning sentabr oyida Janubiy Koreyaga boradi.

O'quvchilarni Koreyaga

olib ketish uchun Samarqandga kelgan "Gimcheon High School" maktabi vakillari SIUT rahbarlari bilan birga Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boiboyev bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston va Koreya xalqlarini qadimiy do'stlik rishtalari bog'lab turishi, keyingi yillarda davlatlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar sohada ham hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borayotgani qayd etildi.

Viloyat hokimi Koreya respublikasi ta'lim muassasalarini hamkorlik Samarqand uchun manfaatli bo'lishini ta'kidlab, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga tayyorligini bildirdi.

O'z navbatida "Gimcheon High School" direktori o'rinbosari Seung Min Li mazkur dastur orqali samarqandlik iste'dodli o'quvchilarning Janubiy Koreyada sifatli ta'lim olishi uchun zarur yordam ko'rsatilishini bildirdi.

Ijtimoiy loyiha joriy yilda ham davom ettirilishi va may oyida saralash bosqichlari o'tkazilishi ma'lum qilindi.

Harbiy xizmatni Qozog'iston Respublikasida o'taganman. Bronetank diviziyamiz vaqt-vaqti bilan harbiy mashq o'tkazish uchun cho'lda joylashgan poligonga chiqib turardi. Ana shunda bir qiziq tabiat hodisasiga guvoh bo'lganman. Yozning jazirasida olis-olislardan ko'm-ko'k suv to'la ko'l namoyon bo'lardi. Unga endi yaqin borganimizda, birdan g'oyib bo'lib qoldi. Bu kitoblarda o'qiganimiz sarob bo'lib, atmosferadagi harorat o'zgarishi bilan bog'liq ko'zni aldaydigan oddiy fizik hodisa edi. Buni eslaganimning boisi shuki, hodisa nafaqat tabiat, balki jamiyat hayotida ham uchrab turadi. Kishi ko'ziga olisda mavjlanib turgan hayotbaxsh suv ko'rinib, ayni yaqinlashgan chog'ingizda, uning aldamchi sarob ekanligi ma'lum bo'lib qoladi.

Insoniyat ham o'z tarixi davomida abadiy saltanatlar, ming yillik imperiyalar, yoxud kommunizmning jannat bog'lari kabi "sarob"lar sari intilib, oxiri quruq qo'l bilan qolganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bunda rahnamo bo'lgan Iskandar, Chingizxon, Stalin, Gitter va ularning keyinchalik yetishib chiqqan shogirdlari singari jahongirlar ham oxiri nima bilan tugaganlari hamмага ma'lum. Tarixni yaxshi muallim deydilar. Ammo odamzod farzandlari uning saboqlarini tez unutib yuboradi.

Bugun XXI asrda ham ko'zga yolg'ondan ko'rinadigan, soxta manzillar sari intilyotgan darg'alar kam emas. Ular bu yo'lda yana million-millionlab odamlarning yostig'ini quritishga tayyor. Chunki bu jangu jadallarda na ularning o'zi, na bolalari ishtirok etmaydi, balki o'tgan asrning boshlarida ishchi-dehqon qizil armiyasida bo'lganidek, urush qiyomaligichiga oddiy fuqarolar tashlanadi. Ular goh darg'a uchun, gohida soxta g'oyalar uchun, hozirgi kunlarda esa shunchaki, katta pul uchun urush o'chog'iga kirmoqda. Bularning barchasi yuqorida aytganimizdek, katta sarob - dunyo egaligini qo'lga kiritish uchun qilinmoqda. Bir tomondan Rossiya, AQSh boshchiligidagi Sharq darg'alari AQSh va Yevropa bilan katta raqobatga chog'lanmoqda.

Qizig'i shundaki, aynan ana shu mamlakatlar G'arb mamlakatlarining ko'magi bilan oyoqqa turib olgani rad qilib bo'lmaydigan tarixiy faktlardir. O'tgan asr boshlarida Rossiya xalqini ocharchilikdan saqlab qolgan G'arb davlatlari keyinchalik uni industriyalashtirishga ham yaqindan yordam berishdi. Ularning ko'magisiz ikkinchi jahon urushida g'alaba qozonish sira mumkin bo'lmaganligi ayon haqiqat. Xitoy ham G'arb va yapon texnologiyalarisiz bunchalik darajada rivojlanishi mullaqo' imkonsiz bir ish edi. Qolaversa, Pyotr I Yevropaga "darcha" ochmaganida, Rossiya dunyo xaritasida qoloq bir o'lka sifatida qolib ketaverishi ham mumkin edi. Ammo notashakkur bu imperiyalar keyingi davrda G'arb dunyosini o'zi o'rgatganidek qilib ko'zini o'ymoqda.

Yaqinda televizor orqali Birlashgan millatlar tashkiloti majlisidan reportaj olib berildi. Unda Xitoy vakili tanqid qilingani uchun AQSh ma'murlariga dag'dag'a qila boshladi, Rossiya vakili esa Ukrainaga yordam to'xtatilmasa, G'arbiga yomon bo'lishini bildirdi. Mening nazarimda, G'arb mamlakatlari olib borayotgan globalizm siyosati bilan o'zi o'tirgan shoxni o'zi kesayotgan odamga o'xshaydi. Biroq bu borada G'arb mamlakatlari naqadar noron bo'lib tuyulmasin, strategik nuqtai nazaridan ularning qilyotgan ishlari oxir-oqibat to'g'ri bo'lib chiqadi. Aytaylik, o'tgan asrning 30-yillarida AQSh SSSRning sanoatlashuviga yordam bermaganida, dunyo xalqlari fashizm ustidan g'alaba qila olarmidi? Yoki bo'lmasa, Xitoyga investitsiyalar kiritilib, zamonaviy davlatga aylalmasa, "yovuzlik saltanati"ga raqobatchi xo'jayin o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasdi. Endi ularning birgalashib, G'arb tomorqasi tomonga tosh otayotganlariga kelsak, buyam raqobatning bir ko'rinishi. Nega desangiz, hayot bor joyda istaysizmi, istamaysizmi, raqobat bo'ladi. Raqobat hayvonot olamida, hatto o'simliklarda ham bor. Katta daraxtlar kichiklariga soya solib ko'kargani qo'yamdi.

Agar ikkita odam kimsasiz orolga borib qolsa, biri Robinzonda, ikkinchisi Jumavoyga aylanib qoladi. Shu ma'noda, bugungi raqobat jahon miqyosida davom etmoqda. Dunyoni avtoritar davlatlar boshqaradimi yoki demokratik mamlakatlarmi, degan katta savol jahon xalqlari boshi uzra Domokl qilichiday osilib turibdi.

Bundoq olib qaraganda, ulardan qay biri ustunlik qilishi unchalik muhim bo'lmagan bir ishdek tuyuladi. Ammo chuqurroq o'ylab qaralsa, jamiyatlar uchun buning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ochiq ayon bo'lib qoladi. Demokratik dunyoda esa inson huquqlari va burchlariga ustuvor darajada e'tibor beriladi. Avtoritar tuzumdagi davlatlarda ko'proq davlat manfaatlari ustunlik qiladi. Shu bois bo'lsa kerak, inson huquqlarining toptalishi nodemokratik mamlakatlarda kundalik odatiy holat hisoblanadi. Aynan shu boisdan ham avtoritar boshqaruvdagi davlatlarda huquqiy nigilizm keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Chunki odamlar amal qilinmaydigan qonunlarga rioya qilishni ham, ularni o'rganishni ham istamaydi.



Yuqorida yozganimdek, sobiq sho'ro armiyasidagi xizmat menga ko'p narsalarni o'rgatdi. Avvalo, o'sha yerda rus tilini o'rgandim, chinakam xalqlar do'stligi nima ekanligini ko'rdim, bildim. Xorijiy radioovozlarni ilk bor tingladim. "Boboy" askarlarning VEF radiopriyom-nigi bo'lardi. Ofitserlar uy-uyiga ketib bo'lgach, ular yashirincha "Amerika ovozi", "Bi-Bi-Si" kabi xorij radiolarini eshitardilar. "Boboy"lar armiya nizomiga ham unchalik rioya qilishmas, kundalik hayotda ko'proq "dedovshina" degan yaramas tartib amal qilardi. Xizmat chog'ida men e'tibor qilgan yana bir g'alatilik shunda ediki, askarlar orasida qamoqda o'tirib chiqqanlarning obro'si yuqoriroq edi. O'ris bolalar orasida deyarli barchasi hech bo'lmaganda o'n besh sutkaga yoki gaupvaxta (harbiy qamoqxona)da yotib chiqqanligi bilan faxrlanar va bu ular uchun katta jasorat hisoblanardi. Men keyinchalik mushohada qilib ko'rganimda shuni bilib oldimki, bu an'ana sovet davlatining boshidanoq amalda bo'lgan ekan.

Tarixdan bizga yaxshi ma'lum, sho'ro davlatini boshqargan dastlabki siyosiy arboblarning deyarli barchasi Chor Rossiyasining turma va surgunlarida o'tirib chiqqan odamlar bo'lgan. Bugungi kunlarda ham biz buning yorqin isbotini ko'rib turibmiz. Rossiya tomoni xalqaro huquq me'yorlarini mensimasdan, yon-atrofidagi kuchsiz qo'shni davlatlarga qarshi qurolli xuruj uyushtirmoqda. Ularning hududlarini kuch bilan egallab, o'z chegaralariga qo'shib olmoqda. To'g'ri, bu borada ayrim G'arb davlatlari ham qo'shnilariga nisbatan ko'z olaytirmoqda. Masalan, AQSh prezidenti Donald Trampda Meksika va Kanadani Amerikaga qo'shib olish niyati borligi hammani ajablantirmoqda. Bunda u jiddiy gapiryaptimi yoki kimdadir istehzo qilayotimi, bilib bo'lmaydi.

Nima bo'lganda ham, dunyo yangi evrilishlar bo'sag'asida turibdi. 1945-yildan keyin shakllangan xalqaro tartib qayta ko'rib chiqilmoqda. Ikkinchi jahon urushi dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan avlod yorug' dunyoni tark etib, ularning o'rnini urush ko'rmagan odamlar egallamoqda. Ming afsuslar bo'lsinki, tinchlikparvarlik, tinchliksevarlik masalalari bugungi siyosat kun tartibidan tushib, mamlakatlar orasida nosamimiy munosabatlar paydo bo'lmoqda. Bir paytlar birgalashib fashizmga qarshi kurashgan davlatlarda fashistik ruhdagi partiyalar qayta bosh ko'tarmoqda. Putin iborasini bilan aytganda: "Gitter o'lgan bo'lsa-da, uning ishi davom etmoqda". Garchand, bu gapni u ukrainlanga yopishtirmoqchi bo'layotgan bo'lsa-da, gap kimga tegishli ekanligini hamma tushunib turibdi. Afsuslarning yana biri shuki, dunyoda ro'y berayotgan ushbu o'zboshimchaliklarga hech kim chek qo'yolmayapti. Hatto BMTdek nufuzli tashkilot ham o'z ravon davlatlar sodir etayotgan o'zboshimchalikka qarshi kurashda ojiz qolmoqda. Shunday bir vaziyatda dunyoning oqsosol mamlakatlari yangi jahon tartibini joriy etishga har biri o'zgacha yo'l bilan intilmoqda.

Bugungi dunyoning real siyosiy qiyofasi shundayki, jahon mamlakatlari ikki diametral qarama-qarshi qutb atrofida aylanmoqda. Birinchi qutbda AQSh boshliq erkin dunyo mamlakatlari uyushgan bo'lsa, ikkinchisining markazida Xitoy, Rossiya, Eron singari yirik davlatlar to'planmoqda. Vladimir Putin orzu qilayotgan ko'pqutblu dunyo balki shudir. Yuqorida yozganimizdek, bu ikki tomon orasidagi raqobat XXI asr davomida uzoq cho'ziladigan kurashga aylanib ulgurdi. Har ikki tomon bir-birini

qanchalik inkor qilmasin, ular bugungi globalizm jarayonlari oqimiga qarshi suza olmaydi. Mamlakatlar va xalqlar bir-biri bilan hamkorlikda harakat qilishga majbur. Ularning birida paydo bo'lgan inqiroz albatta, ikkinchisida kuchli aks sado beradi. Shu ma'noda, jahon xalqlarining oldida turgan bugungi dolzarb vazifa: turli inqirozlar va eng avvalo, katta-kichik urush-janjallarining oldini olishdir.

Urushlar tarixiga chuqurroq nazar tashlasangiz, ularning bir qarashda, oddiy sabablar oqibatida boshlanib ketganiga guvoh bo'lasiz. 1914-yilda Sarayevoda otilgan o'q Birinchi jahon urushiga bahona bo'lgandi. Ammo uning tagida katta bir siyosiy sabablar mavjud edi. XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniya, XX asr boshlarida Yaponiya bilan bo'lgan urushlarda mag'lub bo'lgan Rossiya ham o'sha yili jangga qo'shildi. Rus podshosi Nikolay II Germaniyaga qarshi urush e'lon qilgach, qanchalik g'alati tuyulmasin, rus xalqi bu qarorni olqishlar bilan kutib oldi. Podshohni tezroq Bosfor bo'g'ozini bilan Tsaritsin (Istanbul)ni g'ayridinlar tozalab, egallab olishga davat qilindi. Lekin bu urush nima bilan tugaganligi tarixdan ma'lum. Urush oqibatida hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar Nikolay II ni oilasi bilan qo'shib, itdek otib tashladilar.

Birinchi jahon urushi natijalaridan alamzada bo'lgan Adolf Gitter ikkinchi jahon urushini boshladi va aloqibat, uning boshiga ham rus podshosining kuni tushdi. "Sovug' urush" dagi mag'lubiyatdan norozi bo'lgan zamonaviy bir podshoh 2022-yil 24-fevral kuni yana bir yirik urushni boshlab yubordi. Xo'sh, bu yangi muhobra yoki ular til bilan aytganda, maxsus harbiy amaliyot qachon va qanday yakun topadi? Bugun ushbu savol dunyo afkor ommasini qattiq o'ylantirmoqda. Chunki urush talafotlari kundan kunga ko'payib, astronomik miqdorga yetmoqda. Ommaviy axborot vositalarining xabariga ko'ra, uch yil ichida berilgan qurbonlar soni million kishidan oshib ketgan. Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, o'n yillik afg'on urushida 15 ming sho'ro askari qurbon bo'lgandi. Ukraina bilan kechayotgan bugungi janglarda esa har kuni ming kishidan ortiq odam halok bo'lyapti. Ming-minglab yosh-navqiron yigitlar may-majruh bo'lib qolmoqda.

Bundan buyongi voqealar oqimi Amerikaning yangi saylangan prezidenti va uning atrofidagi siyosiy arboblari-ga bog'liq bo'lib qolmoqda. Donald Tramp yaxshi tadbirkor. Biroq uning dunyo miqyosida kechayotgan siyosiy jarayonlar bilan qiziqishga uncha xushi yo'q. Agar u katta siyosiy o'yin olib borayotgan, jahonning pixon yorgan siyosatchilari bilan raqobatlasha olmasa, demokratik dunyoning kelajagi xavf-xatar ostida qolishi tayin. Yana shuni ham borki, AQShda davlat siyosatini prezidentning yakka o'zi hal qilmaydi. Bunda kongress va senatning ham aytar so'zi bo'ladi. Tramp saylov oldidagi chiqishlaridan birida ushbu urushga 24 soat ichida chek qo'yishga va'da bergandi. Ammo u keyinroq bu mushkul muammoni hal qilish unchalik oson ish emasligini tan olishga majbur bo'ldi. Hozirgi vaziyat shundayki, har ikki tomon ham urushdan charchagan. Nima bo'lganda ham bu urush cheksiz davom etishi kerak emas. Zero, oy ostida hech bir narsa abadiy emas. 2025-yilda bu qirg'inbarot janglarga nuqta qo'yilishi lozim. Dunyo xalqlarining yagona orzusi: oy ostidagi kichik uy - moviy sayyoramizda hamisha tinchlik barqaror bo'lsin!

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

Issiqxonada xorijiy mutaxassis tavsiyasi asosida limon yetishtiriladi

2021-yilda Kattaqo'rg'on tumanida "Turonbank" tijorat bankining kredit mablag'lari hisobidan 10 gektarli issiqxonada tashkil etilgandi. Limon yetishtirishga ixtisoslashgan bu issiqxonaning boshqalaridan afzalligi unda xorijlik mutaxassislar jalb etilgan holda ko'chatlar parvarishlanadi.

– Mutaxassislar kelib, tuproq, iqlim sharoitini o'rganishdi va xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan limonning "Mir" navini tavsiya etishdi, – deydi "Qo'shlovuz" MChJ ish boshqaruvchisi Umid Sobirov. – Issiqxonani Xorazm va surxondaryolik mutaxassislar qurdi. Ko'chatlarni o'zlar Toshkent va vodiy viloyatlaridan keltirib ekishdi. Limon yetishtiruvchi dehqonlar yaxshi biladiki, bu meva uch yilda hosilga kiradi. Bog'bonlarning hisob-kitoblari-ga ko'ra, bu navdagi bitta yaxshi ishlov berilgan ko'chat o'rtacha 200-280 kilogramgacha hosil beradi, lekin o'sha paytda biroz noto'g'ri parvarish qilingani hisobiga hosilga kirish kechikdi. So'ngra Turkiyadan limon bo'yicha mutaxassis jalb etilib, o'zi bilan kerakli dorilarni olib keladi, yilda ikki-uch bor kelib, ishlov berish bo'yicha shartnoma tuzildi. U iyun-avgust oylarida kelib, ko'chatlarga ishlov beradi. To'g'ri parvarish natijasida bu yildan ko'chatlar hosilga kirdi. Issiqxonada 15 nafar doimiy va 100 dan ortiq mavsumiy ishchi mehnat qiladi. Asosiysi, issiqxonada qurilgan paytda tabiiy gazga moslashgan edi. Lekin 2023-yildan tabiiy gaz tarmoqdan uzildi. Shundan so'ng issiqxonani termos shaklida o'tin va ko'mirda isityapmiz.

Ushbu issiqxonada limon ko'chatlari

to'liq hosilga kimgach, ichki iste'molga va bir qismini eksportga yo'naltirish imkoniyati ham yaratiladi.

– 22 yildan buyon issiqxonalarda limon ko'chatlariga shakl berish ishlari bilan shug'ullanamiz, – deydi bog'bon Hamidulla Uzoqov. – Bu ko'chatning hosildor shoxlariga shamol tegishi hosilning mo'l bo'lishiga yordam beradi. Hosilning ortishi limonlar orasida havo aylanishiga ham bog'liq. Keyin limon sovuqqa chidamli o'simlik hisoblanadi. Bu issiqxonada ham qish bo'yicha qattiq sovuq kunlari uch-to'rt marotaba tutun yordamida isitildi, lekin 4 daraja sovuqda ham ko'chatlarga zarar yetmadi.

Solishtirish uchun Eronning iqlimi va tuproq tarkibi biznikidan katta farq qiladi. Ularda issiq iqlim bo'lgani uchun ko'chatlar orasini qisqa qilib ekadi, ishlovni barg orqali beradi va issiq bo'lgani uchun ko'p sug'orishadi. Shuning hisobiga u yerda yetishtirilgan limon yuqqa po'stloqli bo'ladi va ko'p vaqt saqlashning imkoni yo'q. Bizda esa ishlov tomirdan beriladi, keng ekilgani hisobiga havo aylanishi yaxshi bo'ladi va yoshlning po'sti qalin bo'ladi. Keyinchalik po'sti yuqqlashsa ham bu limonni may-iyun oylarigacha saqlashga imkon beradi.

O'XUDYBERDIYEV.



HAR BIR XODIM UCHUN MUNOSIB MEHNAT SHAROITI

Jomboy tumanidagi "UZ TRUCK AND BUS MOTORS" qo'shma korxonasida "Kasaba uyushmasiga a'zo tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish" mavzusida seminar o'tkazildi.

Unda tarmoq kasaba uyushmalari viloyat kengashlari raislari, yirik boshlang'ich tashkilotlar raislari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar ishtirok etdi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi Suhrob Rafiqov O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yillik tarixi haqida so'z yuritdi.



Shundan so'ng qo'shma korxonada direktori o'rinbosari Sherzod Hasanov ishchi-xodimlar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari to'g'risida ma'lumot berdi.

- Bu kabi tadbirlar orqali nafaqat ish beruvchini xabardor qilish, balki ishchi-xodimlar manfaatini himoya qilishga erishyapmiz, - deydi Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashining mehnatni muhofaza qilish bo'limi yetakchi mutaxassisi Orif Mizomov.

- Qolaversa, seminar davomida ishtirokchilar o'zaro tajriba almashish imkoniga ega bo'ldi. Kelgusida har bir tarmoq kasaba uyushmasining faoliyatini yoritgan "Eng yaxshi ijodkor" tanlovi, "Zakovat" intellektual o'yini hamda sport musobaqasini tashkil etishga kelishib oldik. Tadbirda korxonaning bir guruh xodimlariga "O'zbekiston bo'yab sayohat qili!" shiori ostidagi sayyohatlar uchun yo'llanmalar topshirildi.

Husan ELTOYEV.



Samarqand davlat chet tillar institutiga Qozog'istonning Karaganda universiteti vakillari tashrif buyurib, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdi. Uchrashuv davomida bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida qo'shma ta'lim hamda talabalar almashinuvi dasturlarini amalga oshirish, umumiy o'quv rejalarini ishlab chiqish borasida kelishuvlarga erishildi.

Xalqaro ta'lim bozori sari muhim qadam



Ayni davrgacha qo'shma ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha ikkala universitetlarning tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedralari faol hamkorlik qilib kelayotgan edi. Bugun hamkorlik doirasida ilmiy-metodik faoliyat yo'lga qo'yilib, qo'shma ta'lim dasturini ishlab chiqish, xalqaro talaba almashinuvi hamda tomonlarning akademik talablariga mos keluvchi o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Ushbu hamkorlik oliy ta'lim muassasalarining o'zaro tajriba almashinuvi kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish, talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Qolaversa, xalqaro ta'lim bozorida institutlarning nufuzini mustahkamlashga imkon yaratadi.

Muhammadjon ZAYNIDDINOV,
SamDCHTI o'qituvchisi.

Viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 580 taga yetdi. Ularning 255 tasi qo'shma, 325 tasi xorijiy korxonalar.

Kuz-qish mavsumida isitish pechlaridan noto'g'ri foydalanish va loqaydlik oqibatida yuzaga keladigan noxushliklar faqat bizda kuzatilmaydi. Ayni muammo bilan butun dunyo, hatto rivojlangan davlatlar ham kurashib keladi va har birining bu borada o'z tajribasi bor.

Ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk Britaniyada shu ofatning dastidan yiliga salkam 800 nafar, Amerika Qo'shma Shtatlarida 500 nafarga yaqin, Rossiyada 350 nafardan ortiq odam hayotdan ko'z yumadi. O'z navbatida AQShning Nyu-York, Kolorado, Kaliforniya shtatlarida is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilingan. Misol uchun, Kaliforniya shtatining 2010-yildan beri amal qiladigan qonuni talablariga ko'ra, gaz va isitish moslamalari mavjud bo'lgan har bir xonada is gazini aniqlovchi detektor (gazonalizator)larni o'rnatish majburiy hisoblanadi. Ayni vaqtda bu tartib Buyuk Britaniyada ham joriy

Xorijda is gazidan qanday himoyalanihadi?

qilinmoqda.

AQSh va Kanada davlatlarida markaziy isitish tizimidan voz kechilib, ko'p qavatli uylarning yerto'lalarida butun uyni isitib beradigan boylerlar (suvni isitadigan quрилmalar) o'rnatilmogda. Yevropada ham individual isitish moslamasi - generatorlarni o'rnatish keng rivojlangan. Janubiy Koreyada esa suyuqlik uglevodorod gaz ballonlarini baland qavatli turarjoy binolarining birinchi qavatida, yong'inga qarshi bo'lgan devorlarning orqa tomonida o'rnatish tartibi joriy etilgan.

Mamlakatimizda ham qurilayotgan ko'p qavatli uylarda ushbu amaliyot keng qo'llanilmogda, ya'ni ikki konturli isitish qozonlari o'rnatilmogda. Jara-



yonda yuqorida qayd etilgan davlatlarning boshqa ijobiy tajribalarini qo'llash bo'yicha ishlar boshlangan.

Sayfiddin JUMAYEV,
Favqulodda vaziyatlar boshlig'i akademiyasi kafedra boshlig'i,
Otabek SHONAZAROV,
akademiyaning 5-batalon kursanti.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OCHIQ MA'RUZA O'TKAZILADI

SamDTU 3-son ichki kasalliklar hamda DKTF nevrologiya kafedralari ishtirokida 2025-yil 5-mart kuni soat 11:10 da ichki kasalliklar va nevrologiya fanlaridan tibbiy biologiya fakulteti 3-kurs talabalar uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Revmatizm kasalligi, klinik kechuvi, diagnostikasi, nevrolik asoratlari, davolash tamoyillari. Profilaktika".

Ma'ruzachilar: Ph.D., M.M.Ergashova hamda Ph.D., B.K.Xamdamova.

Manzil: 3-son ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Kafedralar assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: t.f.d.prof., G.Z.SHodikulova hamda t.f.d., dotsent, S.Z.Hakimova.

OCHIQ DARS O'TKAZILADI

SamDTU 3-son ichki kasalliklar hamda nur diagnostikasi va terapiya kafedralari ishtirokida 2025-yil 14-mart kuni soat 11:10 da ichki kasalliklar va nur diagnostikasi fanlaridan 2-son davolash ishi fakulteti 309-guruh talabalar uchun integral ochiq dars bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Revmatizm kasalligi, klinik kechuvi, diagnostikasi, nevrolik asoratlari, davolash tamoyillari. Profilaktika".

Ochiq dars o'tuvchilari: Ph.D., N.X.Shonazarova hamda assistent, A.S.Ametova.

Manzil: 3-son ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Kafedralar assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: t.f.d.prof., G.Z.SHodikulova hamda dotsent., J.Sh.Mansurov.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Xaitov Baxtiyor Togayevichga (2019-yil 21-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida mar-

hum Abdumurotova Gulbahor Shomiyevnaga (2023-yil 27-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Xatamov Saydulla Rabbimovichga (2024-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Rasulov Komil Sunnatovichga (2022-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Umarov Alijon Djalolovichga (2024-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Majitov Shokirjon Kanaatovichga (2023-yil 29-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Astanov Abduvaxobga (2023-yil

Yonimizdagi odamlar



Hayotda shunday kishilar borki, ulardan o'rnak oling, har kuni ular haqida gapirgning keladi. Umrini ilmga bag'ishlagan, ustozlik maqomiga erishgan filologiya fanlari doktori, professor Abdi Eshonqulovich Mamatov ana shunday insonlardan biri.

Ziyoga intilganlar ibratlari

A.Mamatov 1947-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. 1965-yilda maktab-internatni tugatib, Samarqand davlat universitetining chet tillar fakultetida ta'lim oldi. Universitetni bitirib, mazkur oliy ta'lim muassasasining fransuz tili kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1974-yilda Leningrad davlat universitetining aspiranturasiga o'qishga kirdi va ilmiy-tadqiqotchi sifatida faoliyat olib bordi. 1979-yil mazkur universitetda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Shundan so'ng u yana Samarqand davlat universitetiga qaytdi. Universitetda dekan o'rinbosari, kafedra mudiri kabi vazifalarda mehnat qildi. Ilm yo'lini tanlagan A.Mamatov 1989-yilda sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining tilshunoslik instituti doktoranturasida o'qidi. Tilshunoslikning rivoji, muammolarini o'rgandi, tahlil qildi.

Olim 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi til va adabiyot institutida "Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning ilmiy tadqiqotlari adabiy til normasi, nutq madaniyati masalalari, frazeologiya, stilistika, etnolingvistika va sotsiolingvistika kabi sohalariga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir.

Olim diqqatini tiling ijtimoiy ahamiyatiga qaratdi, frazeologiya muammolariga e'tibor berdi. Ilmiy izlanishlarida frazeologik norma, frazeologik variant munosabati kabi masalalarni puxta tadqiq qildi.

Ustoz qator yillar Toshkent davlat



universitetida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida, Samarqand viloyati hokimining o'rinbosari kabi mas'uliyatli vazifalarda ham faoliyat olib bordi.

Ayni paytda domla O'zbekiston Milliy universiteti fransuz filologiyasi kafedrasida professori sifatida mehnat qilmoqda. Ustoz umri davomida yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun o'z mehnatini ayamadi. Uning bevosita rahbarligida 41 ta nomzodlik, PhD va 10 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi. 400 dan ortiq ilmiy ishlar, darslik va o'quv qo'llanmalari, metodik ishlanmalar va tavsiyalar nashr qildirdi.

Ustozning biz, shogirdlarga bergan saboqlari, hayotiy tajribalaridan mamnunmiz. Abdi Mamatov kabi ustozlar bor ekan, ilm-fan yo'lida samarali mehnat qiladigan ziyolilar yetishib chiqaveradi. Domlaga uzoq umr, sihat-salamatlik, pedagogik faoliyatiga rivoj tilaymiz.

Nargiza MAVLONOVA.

Gulchehra Jamilova 1958-yilda Samarqand viloyatining Jomboy tumanida tug'lgan. ToshDU (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetini 1983-yilda tamomlagan. 1985-yilda "O'zbekiston ovozi" gazetasida xizmat qildi. 1986-2000-yillarda respublika xotin-qizlarining "Saodat" jurnalida turli lavozimlarda ish yuritdi. Gulchehra Jamilova matbuot sohasidagi xizmatlari uchun hukumatimizning "Shuhrat" medali (1997-yil) bilan taqdirlandi. 2000-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvonini oldi. 2000-yildan buyon Gulchehra Jamilova O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "Sihat-salomatlik" jurnalida ishlab kelmoqda. "Umr hikmatlari", "Qoyadagi atirgul", "Moyi barqut siri", "Yorug' kun", "Men borman hayot", "Xizmi ko'rgan odamlar" kitoblari nashrdan chiqqan.



"Uchqur lahzalar"

Yangi kitob



Zominlik ijodkor Yo'ldosh Fozilov qissa, hikoya, hajviya, she'rlari va jahon adabiyotidan tarjimalari bilan "Zarafshon" mushtariylariga tanish. Ijodkorning shu kungacha "Cho'qqilar sari", "Jo'shqin qalb", "Ilk qadam" nomli qissalari, "Hayot jilvalari" hikoyalari va "Baxmalda bahor" she'rlar turkumi adabiyot ixlosmandlari e'tiboriga tushgan.



Yaqinda ijodkorning "Uchqur lahzalar" nomli jamlanmasi poytaxtdagi "Tamaddun" nashriyotida chop etildi. Yozuvchining ushbu kitobidan avvalgilari kabi hayotiy voqealar asosida yaratilgan hikoyalari, jaydari qochirilmalarga boy hajviyalar, yillar davomida to'plangan tajribalar asosidagi adabiy mulohazalari hamda rus adabiyotidan qilingan tarjimalari o'rin olgan.

Xususan, unda dastlab "Jo'shqin qalb" qissasini o'qiydiz. Ushbu qissada yozuvchi inson hayotida eng aziz bo'lgan ota-onasi, ularning beminat mehr-muhabbati, yaqinlarining oqibati haqida boshidan kechirgan ibratli voqealar asosida hayotiy xulosalarini badiiy bo'yoqlarda bayon qiladi. Kitobdan o'rin olgan hikoya va hajviyalarda soddalikka yo'g'rilgan xalq donishmandligi, qishloq odamlarining tantiligi, beg'ubor gurunglari o'quvchini beixtiyor bolaligi o'tgan manzil-makonlarga, u yerdagi insonlar davrasiga chorlaydi.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROGI

"Til o'rganib, chet elga ketaman",
deyaverishdan charchamaganlar
Vatanning, non-tuz bergan zaminning
qadriga yetarmikan?

Sog'inib

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.
Kuz singari za'far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.
Shu kunlarda bahorga zorman,
Tanxastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?
Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko'ngul.
Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So'zlab turar bor dilimni ul.
Shu kunlarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemisol.
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no'noq qo'l butagan nihol.
Shu kunlarda bahorga zorman...
Zulfiya ISROILOVA.

Nabira

(hikoya)

Shohida darvoza tepasiga o'rnatilgan qo'ng'iroq tug-masiga qo'l uzatdi. Biroq ichkaridagi gap-so'zlar qulog'iga chalinib, darhol qo'lini tortib oldi. Tirqishdan hovli tomonga mo'raladi. Yog'och so'rida o'tirgan qaynonasi tinmay gapirar, qo'shnilari - Zarifa kelinoyi esa uning so'zlarini indamay eshitir, har zamon-da bosh chayqab qo'yardi.

Bugun ertalab tursam, hammayoq jimjit. Kun yo'yilib ketgan. "Hoy, bu uyda tirik jon bormi?" deb baqir-ganimdan so'ng bu kishim asta eshik ochib chiqdilar. Meni ko'rib, o'zlaricha bahona qidirdilar. "Kechasi o'tirib dars qilgandim", deydimi-ey...
- Endi... Institutda o'qish osonmi, charchaydi-da!

Koyisam, "xo'p-xo'p" deydi-yu, so'ng bari-bir bilganini qiladi. O'g'limniyam o'ziga og'dirib olgan. Boshda shu ish bekor bo'ldi, o'zi. Birovning qog'ozdagi qanddek tuziga og'iz solgandim-a, bu yoqda bolasi tushmagur "shundan boshqasini olmayman" deb turib oldi-da, aylanay.

Shohida ortiq chidolmadi. Qo'ng'iroqni zarb bilan qayta-qayta bosaverdi. Keyin nima bo'lgani ayon: qaynonasi shosha-pisha kelib darvozani ochgani, ko'zida jiqqa yosh bilan turgan Shohidani ko'rgach, yuzini chirt o'girgani, so'ng "Bu kishimga tag'in nima bo'libdi?" deb to'ng'illagani, un orada Zarifa kelinoyi sarosimalanib, gulzor yonidagi krandan bir piyola suv olib uzatgani...

Shohida yotoqxonadagi karavotga beholigina cho'karkan, hozirgi manzarani yana bir karra xayoldan o'tkazar, "Ularga ko'z yoshimni ko'rsatib nima qilardim?" deya o'z-o'zini koyirdi. Axir nima qilsin, qaynonasining oxirgi gapi suyak-suyagidan o'tib ketdi. Go'yo u birovning qog'ozdagi qanddek qizini kelin qilmoqchi bo'lgan ekan-u, bu yoqda Shohida uchrab qolib, hamma niyatlari puchga chiqqanmish! "Xo'sh, men-chi? Men ham birovning ko'zga surgan dilbandi, asrab-avayol o'stirgan pokiza qizi edim-ku? Aybim shu ayolning o'g'liga ko'ngil qo'yganimmi?"

Bir vaqtlar Shohida allaqachon turmush qilib ketgan dugonalari yulariga borib turar, ular gap orasida qaynonalaridan nolib qolishsa, u darrov "e, o'zingdan o'tgan, keksa ayol-ku u, so'zlariga xo'p deb quloq solib tursang, olam guliston", deyardi.

Shunda dugonasi "boshingga tushganda bilasan" derdi sekingina. Shohida bo'sh kelmasdi: "Vaqti kelib, erga tegsam, qaynonamga shunday yaxshi muomala qilamanki, keyin u meni o'z qiziday ko'ra boshlaydi!"

Mana, endi bo'lsa...

Shohida shu unyning ostonasidan kirib kelgan kunning ertasiyog' qaynonasi uni ko'pam

xushlamayotganini sezib qoldi.

O'shanda u yangi kelin emasmi, barvaqt turib, hovli va yo'laklarni supurib-sidirdi, nonushta tayyorladi.

So'ngra qaynonasining xonasiga o'tdi.

- Assalomu alaykum, oyijon, choyga keling.

Qaynona pichirlab alik oldi, keyin Shohidaning yuziga qaramay dedi:

- Bahuzur choy ichaveringlar, men keyinroq chiqarman!

Kelinchak mayuslandi "shig" etdi.

"Nojo'ya gapirmadim shekilli..." Uning dasturxon atrofida bo'shshibgina

o'tirganini ko'rgan Akbar darrov vaziyatni "yumshatish"ga o'tdi:

- Oyim ikkimizni yolg'iz qoldirishni istagandirlar-da, choydan qaying!

Oradan bir hafta o'tib, qaynonasi tugun-tersagini ko'tarib, ertalabdan qayoqqadir o'tlanib qoldi.

- Ha, yasanib olibsiz? - dedi Akbar hayron bo'lib.

- Mavludanikiga borib kelay...

Shu ko'yi o'n kunlardan so'ng uyga qaytdi. Bunga qadar Shohida Akbardan uch-to'rt bor so'radi:


- Oyim nega kelmayaptilar? Bizdan xafa emasmi, ishqilib?

- Hecham-da! Uyda kelin bor deb opamnikida bemalol yurgandirlar.

O'shandan keyin ham qaynonaning "chiroyi ochilmadi". U kelini bilan deyarli gaplashmas, Shohida esa buning sababini bilolmay hayron edi. Bir qancha oylar shu taxlit o'tdi. Shohida homilador ekanini bilgach, endi bunaqa noxush holatlarga hech e'tibor bermaslikka qaror qildi. Axir tug'ilajak bolasining sog'lig'ini o'ylashi kerak-ku. "Qay kun kelib, bu hovli-da go'dak yig'isi eshitiladi. O'shanda qaynonam yaxshi tomonga o'zgaradilar", deya ich-ichidan umid qilardi u.

Yukli ayolning ruhiyatida ko'pgina o'zgarishlar yuz beradi. U kun sayin yaxshi so'zga, mehrga intiq bo'layotganini sezadi. Ko'ngli ancha noziklashib qoladi. Shohida ham shunday ahvolda edi. Qaynonasining qovoq solib yurishiga ko'nikkan bo'lsada, baribir buni hazm qilolmasdi.

Gulchehra JAMILOVA.



Mazkur hikoyaning davomini elektron shaklda ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

Ko'chada qolgan

BOLALAR

Turmush chorrahalarida



- Manzura, qani pullarni olib chiq-chi, sarf-xarajatlarga yetarmikan, bir hisob-kitob qilib ko'raylik-chi? - Do'stmurod qo'liga qog'oz-qalam olib, xotiniga buyurdi.

- Dada, menga velosiped olib bering! - erkalandi 1-sinfda o'qiydigan Ilyos.

- Menga futbol to'pi! - dedi kichik o'g'li dadasining pinjiga kirib.

- Albatta, birinchi galda aytganlaringni olamiz, - o'g'illarining boshini siladi Do'stmurod. U chet elda musofirchilikda ishlab topgan pullarini xayolani hisobladi: "Endi oilasi hech narsaga zoriqmaydi, mashina olishga, uyjoyini ta'mirlashga yetadi. Shu ishlarni bitirib olsa, yana chetga chiqib, ikki-uch yil ishlab keladi..."

- Mana, dadasil! - Manzura erining oldiga bir dasta pul qo'ydi. Do'stmurod hafsala bilan sanab chiqdi.

- Kam-ku, qolgan qani? - u Manzura qaradi.

- Ro'zg'orga ketdi-da, bolalaringizga kiyim-kechak oldik. - Manzura erining vajohatini ko'rib, bo'ynidagi tilla zanjirni qo'li bilan yashirdi.

- Ro'zg'orga besh ming dollar ketgandir, olti ming dollar ketgandir, qolgan o'n ming dollar qani?

Manzura ko'zlarini olib qochib, yerga tikildi.

- Agar topib kelmasang, ko'zimga ko'rinma, yo'qol! - Do'stmurod o'rnidan turib, xotinini sudrab uydan chiqardi.

- Aya, ketmang, - o'g'illari Manzuraning etagiga yopishdi.

- Senlar ham yo'qolinglar onang bilan... - Do'stmurod o'zini tutolmasdi. U ne mashaqqatlarda begona yurtda, ming azobda topgan pullarini xotini ko'kka sovuradi deb xayoliga ham keltirmagandi. Uni puldan ham ko'ra, odamlardan eshitgani - xotinining "xurmach qiliq"lari jahlini chiqargandi.

- Endi, uka, xotiningiz o'ylamay xato qilib qo'yibdi. Bolalaringiz haqqi kechiring, yarashing. Ukasining xotini uga sig'dirmay ko'chaga haydabdi, - dedi mahalla oqsoqoli Do'stmurodga nasihat qilib. - Pul topiladi, lekin oila buzilsa, uni tiklash qiyin.

Ammo g'isht qolibdan ko'chgandi. Do'stmurod Manzurani kechirmadi. Ajralib, boshqa ayolga uylandi. Manzura ikki farzandi bilan ijardada yashab, odamlarning u-bu ishini qilib yurdi. Eri yuborgan pullarga betayin dugonalari bilan restoranlarda yurib, qimmatbaho taqinchoqlar taqib, ayollarning ko'zini kuydirib



yurgan kunlarini alam bilan esladi: "Qani edi, oila taqdiriga yuzaki qaramagan bo'lsaydi".

O'zidan yigirma yosh katta, xotini o'lib, to'rt farzandi bilan yolg'iz qolgan bir erkakka turmushga chiqishga majbur bo'ldi. Erining bolalari o'g'illariga kun bermayotganini ko'rib, Manzura ich-ichidan ezilardi. Qo'liga pul tushganida faqat o'zini o'ylabdi, bolalari, oilasi, ularni deb olislarda azob kekkkan jufti halolini, qilmishlarining oqibatini o'ylamabdi. Mana, endi jazosini olyapti, "qaytar dunyo" degani shu ekan-da.

...Maktabdan qaytayotgan Ilyos Do'stmurodni ko'rib, ortidan yugurdi:

- Dada, dadajon!

Do'stmurod uni bag'riga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pdi.

- O'g'lim! - uning ko'zlarini yoshlandi.

O'sha voqeadan bir hafta o'tdi.

- Uka, - dedi Ilyos Sanjarga, - ayamga aytma, dadamnikiga ketamiz, bu yerda baribir bizga kun berishmaydi. Yaqinda men dadamni ko'rdim. Istananglar kelinglar, birga yashaymiz, men sizlarni yaxshi ko'raman, deb bag'riga bosdi.

...Darvoza taqilladi. Do'stmurod uyda yo'q edi. Eshikni xotini ochdi.

- Biz dadam bilan yashashga keldik, - dedi Ilyos o'gay onaga salom berib.

- Nima? - o'gay onaning avzoyi buzildi. - Yo'qolinglar, yalangoyoqlar! Senlarga bu yerda joy yo'q.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 513 nusxada chop etildi. Buyurtma 104. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

